AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI

Shohsanam Mahmudova
Toshkent davlat yuridik universiteti
2-kurs talabasi
E-mail: shohsanammahmudova134@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada demokratik huquqiy davlatlar qonunchiligida muhim prinsip sifatida e'tirof etiladigan aybsizlik prezumpsiyasining mazmuni, kelib chiqish tarixi va xalqaro huquqiy hujjatlardagi aks etishi yoritiladi. Shuningdek, ushbu tamoyilning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Jinoyat-protsessual kodeksidagi huquqiy mustahkamlanishi, amaliyotdagi qo'llanilishi tahlil qilinadi. Maqola doirasida aybsizlik prezumpsiyasining inson huquqlari va adolatli sudlovni ta'minlashdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Annotation: In the article, the content, historical origins, and embodiment of the presumption of innocence as a fundamental principle in the legislation of democratic legal states are examined. The study further analyzes how this principle is legally enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Criminal Procedure Code, as well as its application in practice. Special attention is paid to the significance of the presumption of innocence for the protection of human rights and the assurance of a fair trial.

Аннотация: В статье освещается содержание, исторические истоки и отражение презумпции невиновности как важнейшего принципа в законодательстве демократических правовых государств. Кроме того, проводится анализ правового закрепления данного принципа в Конституции Республики Узбекистан и Уголовно-процессуальном кодексе, а также его применения на практике. В рамках статьи особое внимание уделяется значению презумпции невиновности для защиты прав человека и обеспечения справедливого судопроизводства.

**Kalit so`zlar**: Aybsizlik prezumpsiyasi, demokratik huquqiy davlatlar, tarixiy kelib chiqishi, xalqaro huquqiy hujjatlar, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat-protsessual kodeks, inson huquqlarini himoya qilish, adolatli sudlov

Hozirgi kunda ko`plab davlatlar huquqiy tizimida demokratik tamoyillarga amal qilinadi. Ushbu demokratik davlatlar o`z qonunchiligida aybsizlik prezumpsiyasini yaxlit prinsip sifatida mustahkamlab qo`ygan.

Demokratik davlatlar qonunchiligida aybsizlik prezumpsiyasi kontseptsiyasi alohida o`rin tutadi. Aybsizlik prezumpsiyasi lotincha:"praesumptio" – taxmin, gumon so`zidan olingan. Bu tamoyil shaxsni asoslanmagan ayblardan himoya qilishni kafolatlaydi. Ushbu prinsipning asosiy mazmuni shundan iboratki, jinoyat sodir etilgani, aybdorlik isboti sudda qonuniy tartibda isbotlanmagunicha, shaxs aybdor hisoblanmaydi. Bu prinsipga binoan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o`zini aybsiz deb biladi va uni aybsizligi uchun isbot talab qilinmaydi. Hatto shaxs o`zini jinoyatni qilganini tan olgan taqdirda ham, uning aybi qonuniy tarzda tasdiqlanmagan bo`lsa, u aybsiz hisoblanadi. Aybsizlik prezumpsiyasi sud, tergov yoki prokurorning sub'yektiv qaroriga emas, balki xolis va adolatli huquqiy jarayonga asoslanadi. Qonunchilik bo`yicha, shaxsning aybi faqat kerakli dalillar asosida, ayblanuvchining huquqlari kafolatlangan sud jarayonida aniqlanishi mumkin. Aybsizlik prezumpsiyasida isbotlanishi mumkin bo'lmagan barcha gumonlar ayblanuvchining foydasiga hal etilishi lozim, ya'ni, birovning jinoyat qilganlikdagi aybdorligi isbotlanmasligi uning aybsizligining isbotidir. Ushbu prinsip jinoyat huquqining fundamental va asosiy kafolatlaridan biri hamda demokratik davlatlar yurisdiksiyasida o`z aksini topgan norma hisoblanadi. Aybsizlik presumpsiyasi davlatdagi har bir

shaxsning nafaqat noto'g'ri ayblanish, balki, uning xavfsizligini ta'minlash, sha'nini himoya qilishning muhim aspektidir.

Aybsizlik prezumpsiyasining paydo bo'lishi va hozirgi kunda amaldagi qonunchilikda mustahkamlanguniga qadar bir necha tarixiy bosqichlarni o`z ichiga oladi. Aybsizlik prezumpsiyasi huquqiy tamoyil sifatida qadim zamonlardan beri adolatli sudlovni amalga oshirish va inson huquqlarini himoya qilish maqsadida rivojlanib kelmoqda. Buning tarixi qonunchilikda yuridik tizimlarning huquqiy shakllanishida va inson huquqlari sohasida katta islohotlarga o`z ta'sirini ko`rsatdi. Aybsizlik prezumpsiyasining kelib chiqish tarixi Qadimgi Rim va Yunon huquq tizimiga borib taqaladi. Rim huquqida "nemo tenetur seipsum accusare" (hech kim o`zini o`ziga qarshi ayblay olmaydi) prinsipi mavjud edi. Bu esa ayblanuvchi shaxsni o`zining aybini isbotlash majburiyatidan ozod etadi. Ushbu prinsip aybsizlik prezumpsiyasining shakllanishiga turtki bo'ldi. Afsuski, o`rta asrlarda Yevropada bu g'oya butunlay yo`qqa chiqarildi. Inkvizitsiya sudlari ko`p hollarda "shubxali" shaxslarni "aybdor" deb hisoblashi odat tusiga aylanib ketgan edi. Va XVIII asrda ya'ni, marifatparvarlik davrida aybsizlik prezuumpsiyasi huquqiy muhokama markaziga chiqdi. Bu davrlarda aybsizlik prezumpsiyasining tiklanishida Angliya va Fransiya davlatlari muhim ro`l o`ynadi. Ingliz yuristi William Blackstonening mashhur gapi: "Yuz aybdor ozod bo`lsa ham, bir begunoh nohaq jazolanmasin", sharhi inson sha'ni va adolat haqida chuqur o`y yuritishga undadi. Volter kabi fransuz faylasuflari esa, sud zo`ravonlik va adolatsizliklarga qarshi kurashib, insonni aybdor deb toppish uchun qat'iy asos kerakligini ta'kidlab chiqdilar. Bu kabi undovlar oxir oqibatda 1789-yilda Fransiyaning "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi"da aybsizlik prezumpsiyasining qonun darajasida mustahkamlanishiga olib keldi. XIX asrda esa bu prezumpsiya Napoleon kodeksi orqali amalda ishlay boshladi va Yevropaning boshqa ko`plab davlatlariga o`z ta'sirini ko`rsatdi, jumladan, Germaniya, Italiya va Rossiyaga. Ikkinchi jahon urushi fojialari inson huquqlarini global darajada himoya qilish zaruratini keltirib chiqardi. Natijada, bu prinsip nihoyat XX asrda xalqaro dajada mustahkamlandi:

- 1948 – yilda BMTning inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (11-modda)
- 1950 – yil Inson huquqlari konvensiyasi (6-modda)

Mazkur normaning eng muhim jahon tashkiloti bo`lgan BMT tomonidan qabul qilinishi katta hodisa bo`ldi. Shu sababdan huquqiy davlatlar bu tizimni o`z qonunchiligiga integratsiya qildilar. Va shu tariqa ushbu prinsip xalqaro miqyosida yana qayta tiklandi.

Aybsizlik prezumpsiyasini o`z qonunchiligiga integratsiya qilgan davlatlardan biri bu – O`zbekiston. Ushbu norma O`zbekistonning asosiy huquq tiziming negizi bo`lgan Konstitutsiyasining 28-moddasida mustahkamlab qo`yilgan. Unga ko`ra hech kim uning aybi qonunchilikda nazarda tutilgan yo`llar bilan isbotlanmagunicha aybsiz hisoblanishi va shaxsning o`zining shaxsiy ko`rsatmasi aybdor deb topilishi uchun yetarli emasligi, shubxali holatlar esa ayblanuvchining foydasiga talqin etilishi belgilangan. Shuningdek, bu qoida protsessual harakatlarni aniq tartibga solish maqsadida Jinoyat Protsessual kodeksida hammustahkamlab qo`yilgan. Unga ko`ra, jinoyat ishi bo`yicha sudlanuvchi shaxsni aybdor deb hisoblashdan oldin, ayblov isbotlanishi kerak. Aybsizlik prezumpsiyasi davlat tomonidan taqdim etiladigan asosiy huquqiy kafolat bo`lib, jinoiy javobgarlikka tortilgan har bir shaxsning erkinligini, obro`sini va boshqa huquqlarini himoya qiladi. Aybsizlik prezumpsiyasining amalda qo`llanilishi juda muhim,chunki bu jinoyat protsesslarining ob'yektiv va adolatli bo`lishini ta'minlaydi. Agar ushbu prinsip buziladigan bo`lsa, sudlarning nohaq qaror va noto`g`ri hukm chiqarishining ehtimoli ortadi. Shu kabi xatoliklarni oldini olish maqsadida O`zbekiston qonunchiligida ayblovni isbotlashning davlat zimmasiga yuklanishi va ayblanuvchi shaxsning erkinligi hamda huquqlarini himoya qilish zarurati qat'iy belgilangan. Ammo ayrim holatlarda aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilishdan chekinish holatlariga yo`l qo`yilmoqda. O`zbekiston Oliy sudi va Konstitutsiyaviy sudi o`z qarorlarida ushbu prinsipga qat'iy amal qilish lozimligini ta'kidlab kelmoqda. So`nggi yillarda prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida olib borilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar doirasida sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash, huquqshunoslik ta'limini rivojlantirish va tergovda asossiz hibsga olishlar sonini kamaytirishga qaratilgan choralar ko'rilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://search.app/uQVUJCShQzWNcnPMA
2. https://search.app/e6rqhWZosFGW8pPE8
3. http://tadqiqotlar.uz/ 38-son 4-to'plam
4. in-academy.uz/index.php/si
5. https://search.app/C2As29iqpTNi23xg9
6. William Blackstone – Commentaries on the Laws of England (1765–1769) https://avalon.law.yale.edu/18th_century/blackstone_bk4.asp
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (UDHR), 1948-yil
8. Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi (ECHR), 1950